

QONUNCHILIK HUIJJATLARI, TOPSHIRIQLAR HAMDA HUKUMAT QARORLARINING IJROSI YUZASIDAN “O‘ZAGROINSPEKSIYA”DA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR

Ijro intizomiga rioya qilish har bir boshlangan ishning muvaffaqiyatli amalga oshishining garovidir. Shunday ekan, ushbu yo‘nalishda “O‘zagroinspeksiya” vakolati doirasida belgilab berilgan chora-tadbirlarning natijadorligiga katta e‘tibor berilmoqda.

Xususan, 2026-yilning yanvar oyida **49** ta hujjat, shundan, O‘zbekiston Respublikasining **7** ta Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **5** ta farmon, farmoyishlari va **19** ta qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining **18** ta qarorlari ro‘yxatga olinib, ijroga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 10-fevraldagi **PF-6166**-sonli Farmoni hamda 31-maydagi **PQ-5132**-sonli qaror talablaridan kelib chiqib, ijro intizomiga rioya qilinishi bo‘yicha **har haftaning dushanba va juma kuni** muhokama qilinib, o‘tkazilayotgan apparat yig‘ilishlari kengaytirilgan yig‘ilish hamda rayyosat yig‘ilish bayonlari rasmiylashtirildi va har bir topshiriq ijrosi ta‘minlanishi nazoratga olinib kelinmoqda.

“**Ijro.gov.uz**” tizimida bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan tahliliy axborotlar hamda Inspeksiyaga kelib tushgan qonunchilik hujjatlari ijrosini muddatidan oldin ta‘minlash maqsadida har oyda **Kalendar-grafik jadvallari** ishlab chiqilmoqda va shu asosida ishlar kunlik tashkil etilib, natijasi bo‘yicha **Vazirlar Mahkamasiga** axborot kiritilib kelinmoqda.

Tizimda O‘zbekiston Respublikasining **qonunlari**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **Farmon, qaror, farmoyishlari**, Prezident Administratsiyasi rahbarining **topshiriqlari** hamda Hukumatning **qaror va farmoyishlari** ijrosi qat’iy nazoratga olingan.

Joriy yilning **yanvar oyida** Inspeksiyaga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali **5** ta Prezident qarori bo‘yicha **21** ta va **2** ta bayoni bo‘yicha **3** ta kelib tushgan topshiriqlar yuzasidan **nazorat rejalari ishlab chiqildi va tegishli ijrochilarga yo‘naltirildi.**

Shu bilan birga, “Ijro.gov.uz” tizimida “O‘zagroinspeksiya” ning ish yurituvda bo‘lgan **yanvar oyi** muddatli **19** ta qonunchilik hujjati bo‘yicha **35** ta topshiriq ijrosi yuzasidan ishlar tashkil qilinib, amalga oshirilgan ishlar natijasida **35** ta topshiriqning bo‘yicha axborotlar tegishli davlat organlariga

kiritilib, belgilangan tartibda muddatidan oldin nazoratdan yechilishi ta'minlandi.

2026-yil 28-yanvar holatiga "Ijro.gov.uz" tizimi orqali **47** ta Prezident hujjatlari ijrosi yuzasidan **130** ta topshiriqlari bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

2026-yil 1-fevral holatiga Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda Hukumat komissiyasining **hujjatlari bo'yicha muddati o'tgan topshiriqlar mavjud emas.**

Shuningdek, tizimdagi qonunchilik hujjatlari bo'yicha keyingi oyda ham topshiriqlar ijrosini qat'iy ta'minlash maqsadida 2026-yil 23-yanvarda **fevral oyida "Ijro.gov.uz"** tizimida bajarilishi lozim bo'lgan nazoratdagi topshiriqlarni bajarishning kunlik **"Kalendar-grafik"** va ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha **"Yo'l xaritasi"** Vazirlar Mahkamasiga taqdim qilindi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi